

## **ONA TILI DARSLARINI O'TISHDA TASVIRIY IFODANING O'RNI**

*Yuldasheva Mohira Botir qizi*

*ToshDO TAUNing 3-kurs talabasi*

+998 93 746 49 44

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tasviriy ifoda vositalarining ona tili ta'lqidagi didaktik ahamiyati, o'quvchilarning estetik tafakkurini shakllantirishdagi roli va uni o'qitishning samarali usullari haqida so'z boradi. Metafora, epitet, tashbeh kabi badiiylik vositalari orqali o'quvchilarda til sezgirligi, obrazli fikrlash va estetik anglash ko'nikmalari rivojlanishiga e'tibor qaratilgan.

**Abstract:** This article discusses the didactic significance of visual expression in native language education, its role in the formation of students' aesthetic thinking, and effective methods of teaching it. The focus is on the development of language sensitivity, figurative thinking, and aesthetic perception skills in students through such artistic means as metaphor, epithet, and simile.

**Kalit so'zlar:** ona tili ta'limi, tasviriy ifoda, badiiylik vositalari, obrazli fikrlash, interfaol metodlar.

**Keywords:** native language education, visual expression, artistic means, figurative thinking, interactive methods.

### **Kirish**

Zamonaviy ta'lim tizimida ona tili darslari o'quvchilarda til va nutq madaniyatini shakllantirish, ularning estetik va ma'naviy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili darslarida tilning faqat muloqot vositasi sifatida o'rganilmasligi, balki uni estetik va badiiy vosita sifatida idrok etish ham lozim. Badiiy va tasviriy ifodaning tilshunoslikda o'ziga xos o'rni bor, chunki u orqali tilning jonli va tasavvurga ta'sir qiluvchi imkoniyatlari to'liq

ochiladi. Tilni tasviriy ifoda vositalari orqali o'rgatish, o'quvchilarga nafaqat tilning mazmunini, balki uning estetik kuchini ham anglash imkonini beradi.

Metodist olim Asqar G'ulomov "Tasviriy ifodalar ham nutq go'zalligini ta'minlovchi asosiy vositalardan biri sanaladi. O'quvchilar mexanik haydovchi so'zini po'lat ot chavandozi, zangori kema kapitani, televizor so'zini zangori ekran, oinayi jahon, shifokor so'zini kumush tola, rassom so'zini mo'yqalam sohibi, qushlar so'zini qanotli do'stlar kabi tasviriy ifodalar bilan almshtira olsagina, nutqda undan to'g'ri va o'rinli foydalanishga erishadi. O'quvchilar nutqini bunday vositalar bilan boyitishda predmet nomini tasviriy ifoda yoki tasviriy ifodani predmet nomi bilan almashtirish, ularning ma'nolarini sharhlash, tasviriy ifodalarni qatnashtirib, gap va matnlar tuzish o'ta foydalidir<sup>1</sup>.

Tilshunos olim To'xliyev esa tasviriy ifoda haqida shunday deydi: "Tasviriy ifodalar (po'lat ot chavandozi, zangori kema kapitani (mexanik-haydovchi o'rnida); zangori ekran, oynai jahon (televizor); qanotli do'stlar (qushlar); oq oltin (paxta)) dan nutqda to'g'ri va o'rinli foydalanish nutq go'zalligini ta'minlovchi asosiy usullardan biri hisoblanadi. Bunda narsa yoki shaxs nomlarini tasviriy ifoda orqali berish yoki tasviriy ifodani predmet nomi bilan almashtirish, ulaming ma'nolarini sharhlash, ular ishtirokida gap va matnlar tuzish foydalidir<sup>2</sup>.

Metodist olma Dilorom Yuldasheva ham tasviriy ifoda haqida biroz to'xtalib, quyidagi fikrlarni ilgari suradi: "|| Tasviriy ifoda haqida gap ketganda, unutmaslik kerakki, ibora til birligining tabiiy hosilasi, tasviriy ifodalar esa nutqda yaratilgan birliklardir. Tasviriy ifoda badiiy adabiyotdagi ramz mavzusi bilan bog'liq: biror narsaning nomini aniq atamay, uning xususiyat, belgisidan kelib chiqqan holda tasvirlash tasviriy ifodadir<sup>3</sup>.

"Tasviriy ifoda" mavzusi ta'limida o'quvchilar tasviriy ifodalarni iboralar

---

<sup>1</sup> A.G'ulomov, M. Qodirov, M. Ernazarov, va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. —T.: "Fan va texnologiya", 2012, 380 bet.166-bet.

<sup>2</sup> B.To'xliyev va boshq. O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b.85-bet.

<sup>3</sup> D.N. Yuldasheva. "O'zbek tilini o'qitish metodikasi. -Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021.- 249-bet.

bilan taqqoslasalar o‘rinli bo‘ladi. Masalan, 1-topshiriq. Berilganlar ichidan tasviriy ifodalarni toping va raqamlarni jadvalda to‘g‘ri joylashtiring. 1) kumush tola ijodkorlari; 2) kumush tola; 3) ikki enlik; 4) qanotli do‘sstarimiz; 5) salomatlik posbonlari; 6) qasam ichmoq; 7) samo yulduzları; 8) məktəb qaldırg‘ochları; 9) oq chashma sohiblari; 10) qora oltin<sup>4</sup>.

Nutqiylar	Javob raqamlar
Tasviriy ifodalar	
Iboralar	

### **“Toj” metodi**

Bu metodda o‘quvchi boshiga so‘z yozilgan toj kiydiriladi.

Atamaga qarab o‘qituvchi yoki o‘quvchilar navbatma-navbat izoh bera boshlaydi.

1ta izoh bilan o‘quvchi topsa 5 ball, 2ta izoh bilan topsa 4 ball, 3ta izoh bilan topsa 3 ball qo‘yiladi. 1ta atamaga 1ta o‘quvchi chiqadi.

Bu metod o‘quvchini fanga nisbatan qiziqishini oshirib yakkama-yakka harakat qilishga undaydi.

### **Tasavvurlar tahlili**

Mavzuning kirish qismi tushuntiriladi. O‘quvchilarga kartochkalar tarqatiladi.

O‘qituvchi mavzuga bevosita aloqador tushunchalarni o‘qiydi va ishtirokchilardan bu tushunchalar bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan tasavvurlarni o‘z kartochkalariga yozib borishlarini so‘raydi.

O‘quvchi mantiqan o‘ylab, o‘z tasavvur qobiliyatini ishga solishi kerak.

Keyin kartochkalar to‘planadi va o‘qituvchi tomonidan barcha tanishib chiqishi uchun aralash holda tarqatib beriladi.

O‘quvchilar tengdoshi yozgan tasavvur mahsulini o‘qiydi va izoh berishga

<sup>4</sup> D.N. Yuldasheva. “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. -Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdonashriyoti, 2021.- 250-bet.

harakat qiladi.

Natijalar muhokama qilinadi va sharhlanadi.

### **Xulosa**

Tasviriy ifoda vositalari ona tili ta'limining eng muhim estetik komponenti sifatida nafaqat til bilimlarini chuqurlashtiradi, balki o'quvchilarda obrazli fikrlashni shakllantiradi, ularni ijodiy va estetik jihatdan rivojlantiradi. Ushbu vositalarni zamonaviy metodik yondashuvlar asosida o'qitish ona tili darslarining mazmun va sifat jihatidan boyishini ta'minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012, 380 bet.
2. D.N. Yuldasheva. “ O'zbek tilini o'qitish metodikasi”. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdonashriyoti, 2021. – 424 b.
3. B.To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova.O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b.
4. Z. Xolmonova, T. Yusupova. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. T.: “ Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi. 2019-yil.194 bet.